Umuman olganda, innovatsion yondashuvlarga asoslangan jismoniy tarbiya dasturi o‘smir-yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish va sportga barqaror qiziqishini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni. “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2020, Manba: Lex.uz.

(2). Matkarimov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019, 320-bet.

(3). Abdullayev A. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2021, 288-bet.

(4). Kholboeva G.K. Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6–7 years through initial gymnastics classes. Eurasian Journal of Sport Science. 2021, vol.1, № 2, p. 45–52.

(5). Xolboyeva G.X., Haydarov B.T., Tojieva X.B. Methodology of improving preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020, №.6, p. 4562–4569.

(6). Xolboeva G.X. Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers. Scientific Bulletin of Samarkand State University. 2019, № 6, p. 140–144.

To‘raqulov Akbar Rustam o‘g‘li (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi; akbartoraqulov@dtpi.uz)

TALABALARDA IJTIMOIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish muammosi tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy mas’uliyati va axloqiy madaniyatini baholashga bo‘lgan ehtiyoj bilan asoslanadi. Tadqiqot nazariy-metodologik tahlilga tayangan holda olib borildi, pedagogik va psixologik adabiyotlar tizimli o‘rganildi hamda komponentli baholash modeli konseptual ravishda ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-axloqiy kompetensiya, baholash mezonlari, ko‘rsatkichlar, diagnostika, pedagogik monitoring, kompetensiyaviy yondashuv, axloqiy rivojlanish.*

Туракулов Акбар Рустам угли (старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Деновского института предпринимательства и педагогики; akbartoraqulov@dtpi.uz)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРИТЕРИЕВ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье анализируется проблема совершенствования критериев и показателей оценки социально-нравственных компетенций студентов высших учебных заведений. Актуальность темы обосновывается необходимостью оценки социальной ответственности и нравственной культуры молодежи в процессе реализации государственной молодежной политики в Республике Узбекистан. Исследование проведено на основе теоретико-методологического анализа, системного изучения педагогической и психологической литературы, а также концептуальной разработки компонентной модели оценки.*

Ключевые слова: *социально-нравственная компетенция, критерии оценки, показатели, диагностика, педагогический мониторинг, компетентностный подход, нравственное развитие.*

Toraqulov Akbar (Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy; akbartoraqulov@dtpi.uz)

IMPROVING CRITERIA AND INDICATORS FOR ASSESSING STUDENTS’ SOCIO-MORAL COMPETENCIES

Annotation. *This article analyzes the problem of improving criteria and indicators for assessing socio-moral competencies of students in higher education institutions. The relevance of the topic is substantiated by the need to assess young people’s social responsibility and moral culture in the process of implementing state youth policy in the Republic of Uzbekistan. The study is based on theoretical and metho-dlogical analysis, a systematic review of pedagogical and psychological literature, and the conceptual development of a component-based assessment model.*

Keywords: *socio-moral competence, assessment criteria, indicators, diagnostics, pedagogical monitoring, competency-based approach, moral development.*

Kirish. Zamonaviy davrda ta’limning asosiy vazifalaridan biri faqat kasbiy bilimlarni emas, balki talabalarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini ham tizimli ravishda shakllantirishdir. Ijtimoiy-axloqiy

kompetensiya bu shaxsning axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy mas'uliyati, empatiyasi, muloqot madaniyati va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini o'zida mujassam etuvchi kompleks (bilim–munosabat–xulq) sifatlar majmuasidir. Oliy ta'lim muassasalarida mazkur kompetensiyalarni aniq va ishonchli baholash nafaqat ta'limning sifatini oshirish, balki jamiyatda ma'naviy barqarorlik va fuqarolik faolligini ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat siyosatining yoshlar taraqqiyotiga qaratilgan ustuvor yo'nalishlari O'zbekistonda so'nggi yillarda jadal rivojlanib, yoshlarga oid kompleks dasturlar va organlar tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar mazkur muammoning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan "2022–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi" [2;12–14-b.] tasdiqlangan bo'lib, u yoshlarni bandlik, ijtimoiy faollik va ruhiy-ma'naviy tarbiya sohalarini kompleks qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy-axloqiy rivojlanishiga qaratilgan davlat siyosati tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan hujjatlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash ustuvor vazifalar sirasida belgilangan. Jumladan, rasmiy hujjatda "yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish" vazifalari alohida qayd etiladi [1;7–9-b.]. Ushbu vazifalar oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar mazmunini baholash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Amaliyotdan ko'rinib turibdiki, yoshlar siyosatining muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy va bandlik chora-tadbirlari bilan, balki ta'lim-tarbiya jarayonidagi sifatli o'zgarishlar orqali ham o'lchanadi. Bu esa oliy ta'lim tizimidan talab etiladigan diagnostika vositalari va baholash mexanizmlarini takomillashtirishni zaruratga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiya shaxsning jamiyatda mas'uliyatli xulq-atvor namoyon etishi, axloqiy me'yorlarga ongli rioya qilishi, ijtimoiy vaziyatlarda adolatli va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishi hamda samarali muloqot olib borish qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan integrativ sifatlar majmuyi sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida mazkur sifatlar bilim (kognitiv), munosabat (qadriyatli) va xulq-atvor (amaliy) komponentlari birligida qaraladi [6 47–49-b.]. Ushbu yondashuv ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashda faqat nazariy bilimlarni emas, balki shaxsning real xulq-atvori va ijtimoiy tajribasini ham qamrab oluvchi mezonlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Klassik pedagogik qarashlarda tarbiya natijalarini baholash masalasi markaziy o'rinni egallaydi. K. D.Ushinskiy shaxs tarbiyasining natijasi uning axloqiy sifatlarida namoyon bo'lishini ta'kidlab, ta'lim jarayonida shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash muhimligini asoslaydi [4;112–114-b.]. A.Avloniy esa tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rib, axloqiy madaniyat shaxs kamolotining poydevori ekanini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar bugungi kunda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishda milliy-ma'naviy asos vazifasini bajaradi [3;25–26-b.].

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishning psixologik asoslari L.Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasida tizimli ravishda yoritilgan. Kolberg shaxs axloqiy tafakkurining rivojlanishini uch bosqich (prekonvensional, konvensional va postkonvensional) hamda olti daraja orqali izohlaydi [5;121–123-p.]. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxsning axloqiy qaror qabul qilish darajasi ijtimoiy tajriba va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Zamonaviy ta'lim nazariyasida kompetensiyalarni baholash muammosi alohida metodologik yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Zimnyaya kompetensiyalarni baholashda shaxsning ijtimoiy tajribasi va real faoliyatini hisobga oluvchi indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Hutmeyr va Oks esa kompetensiyalarni diagnostika qilishda mezonlar va ko'rsatkichlarni darajalar (past–o'rta–yuqori) bo'yicha aniqlash metodikasini taklif etib, baholash jarayonining obyektivligini oshirishga xizmat qiluvchi yondashuvni ilgari suradi. Bu yondashuvlar ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlarini konstruktiv ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston ilmiy maktabi doirasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiya muammosi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, To'raqulov [7;3–5-b.] pedagogik va psixologik adabiyotlarda "ijtimoiy axloq" tushunchasining zamonaviy talqinlarini tahlil qilib, mazkur kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini bilim–munosabat–xulq komponentlari birligi asosida asoslaydi.

Xalqaro tajribada ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash bo'yicha CASEL modeli kabi yondashuvlar mavjud bo'lib, unda empatiya, mas'uliyat, ijtimoiy xulq kabi indikatorlar taklif etiladi [8;12 p.]. Biroq ushbu modellar, asosan, g'arbiy ijtimoiy-madaniy kontekstga mos ishlab chiqilgan. Shu sababli ular-

ni O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirishda milliy qadriyatlar, madaniy an’analar va yoshlarning ijtimoiy muhit xususiyatlarini inobatga olgan holda lokalizatsiya qilish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, unda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish muammosi konseptual tahlil asosida yoritildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika va psixologiya sohasiga oid klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar tizimli ravishda o‘rganildi, ularning mazmuni taqqoslash, umumlashtirish va konseptual sintez metodlari orqali tahlil qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda axloqiy rivojlanish nazariyalari metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini aniqlashda komponentli yondashuv qo‘llanilib, kognitiv (axloqiy me’yorlar haqidagi bilimlar), qadriyatli-munosabat (ijtimoiy mas’uliyat, empatiya, tolerantlik), xulqiy-amaliy (ijtimoiy vaziyatlarda axloqiy xatti-harakatlarni namoyon etish) hamda refleksiv (o‘z xulq-atvorini tahlil qilish va o‘zini rivojlantirishga intilish) komponentlar asosida baholash mezonlari konseptual ravishda ishlab chiqildi. Har bir komponent bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlari nazariy manbalardagi tavsiflar va ilmiy yondashuvlar tahlili asosida tizimlashtirildi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, mantiqiy modellashtirish, tipologizatsiya hamda kategoriyalashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, mavjud baholash yondashuvlari tahlili asosida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi va u mezonlar hamda ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rinishida taklif etildi. Ushbu modelning ichki mantiqiy izchilligi va nazariy asoslanganligi pedagogik konsepsiyalar bilan muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik va psixologik adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-axloqiy kompetensiya tushunchasi ko‘plab tadqiqotlarda keng talqin etilgan bo‘lsa-da, uni baholash mezonlari, ko‘pincha, umumiy tavsiflar doirasida qolib ketadi [6;47–49-b.]. Har bir komponent uchun baholash mezonlari belgilandi: kognitiv komponent – axloqiy me’yorlar va ijtimoiy vaziyatlarni anglash darajasi; qadriyatli-munosabat komponenti – ijtimoiy mas’uliyat, empatiya va tolerantlik, xulqiy-amaliy komponent – real ijtimoiy vaziyatlarda axloqiy xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi, refleksiv komponent – shaxsning o‘z xulq-atvorini tahlil qilishi va o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan tavsiflandi.

Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashda kognitiv va refleksiv komponentlarni chuqurlashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [5;121–123 p.]. Ushbu yondashuv talabalarning axloqiy qaror qabul qilish jarayonida nafaqat xatti-harakat natijasi, balki uning ichki mantiqi va motivlarini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Shu sababli baholash mezonlariga axloqiy mulohaza yuritish darajasini aniqlovchi ko‘rsatkichlarni kiritish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirishda quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: birinchidan, baholash jarayonida komponentli yondashuvni qo‘llash zarurati asoslandi; ikkinchidan, baholash ko‘rsatkichlarini darajalar (past–o‘rta–yuqori) bo‘yicha tipologizatsiya qilishning metodologik asosi belgilandi; uchinchidan, milliy-ma’naviy qadriyatlarni inobatga olgan holda baholash modelini moslashtirish zarurligi asoslandi.

Umuman olganda, olingan nazariy natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash samaradorligi baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarining aniqligi, ularning kompetensiya tarkibiy tuzilmasiga mosligi hamda milliy-ma’naviy kontekst bilan uyg‘unligiga bevosita bog‘liq.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqotda talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish muammosi nazariy-metodologik tahlil asosida yoritildi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholash masalasi ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, ularni diagnostika qilishga mo‘ljallangan mezon va ko‘rsatkichlar tizimi yetarlicha standartlashtirilmagan [6;47–49-b.]. Mavjud yondashuvlarda baholash, ko‘pincha, kognitiv komponent doirasida chegaralanib, qadriyatli-munosabat va xulqiy-amaliy komponentlarni kompleks baholash imkoniyati cheklanganligi aniqlandi [8;12 p.].

Nazariy tahlil natijasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashning komponentli konseptual modeli taklif etildi. Mazkur model kompetensiyaning kognitiv, qadriyatli-munosabat, xulqiy-amaliy va refleksiv komponentlarini o‘z ichiga olgan holda, har bir komponent uchun diagnostik mezonlar va ko‘rsatkichlarni belgilash imkonini beradi [7;3–5-b.]. Shuningdek, Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga tayangan holda baholash mezonlarini axloqiy mulohaza yuritish darajasi bilan boyitish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi [5;121–123-p.]. Ushbu yondashuv ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashda nafaqat tashqi xulq-atvorni, balki talabaning ichki axloqiy pozitsiyasini ham hisobga olishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi amaliy-metodik takliflar ilgari suriladi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini baholash uchun komponentli mezon-

lar va ko‘rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan diagnostik modelni pedagogik monitoring tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, baholash jarayonida faqat test yoki so‘rovnoma bilan cheklanmasdan, refleksiv topshiriqlar, axloqiy dilemmalar asosidagi muhokamalar va kuzatuv vositalarini kompleks qo‘llash tavsiya etiladi; uchinchidan, baholash natijalarini talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashda foydalanish, ya’ni diagnostika natijalariga asoslangan tarbiyaviy va metodik choralarni ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, milliy-ma’naviy qadriyatlarni inobatga olgan holda baholash mezonlarini lokal kontekstga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [3;25–26-b.]. Bu yondashuv ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni baholashda formalizmga yo‘l qo‘ymasdan, ularning real hayotiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida pedagogik monitoringni takomillashtirish, tar-biyaviy ishlar samaradorligini oshirish hamda yoshlar bilan ishlashga oid davlat siyosati yo‘nalishlari bilan uyg‘unlikni kuchaytirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da farmoni. Toshkent, 2020, 7–9-betlar.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “2022–2023-yillarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi to‘g‘risi”dagi qaror. Toshkent, 2022, 12–14-betlar.

(3). Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 2009, 25–26-betlar.

(4). Ushinskiy K.D. Inson tarbiyasi predmeti sifatida. Moskva, “Pedagogika” nashriyoti, 1988, 112–114-betlar.

(5). Kohlberg L. The Psychology of Moral Development: The Nature and Validity of Moral Stages. San Francisco, Harper & Row, 1984, 121–123 p.

(6). Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. Москва, “Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов”, 2006, с. 47–49.

(7). To‘raqulov A.R. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy axloq tushunchasining zamonaviy talqini. “Zamonaviy ta’lim”, “Современное образование”, 2025, № 1 (146), 3–5-betlar.

(8). CASEL. Framework for Social and Emotional Learning. Chicago, Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 2020, 12 p.

Xudoyberdiyeva Shoxsanamxon Mukumjonovna (Andijon davlat universiteti)

ASOSIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ARCS MOTIVATSION MODELI

Annotatsiya. *Maqolada Jon Kellerning ARCS (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) motivatsion modeli va uning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish faoliyatida qo‘llanilishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Talabalar tadqiqot davomida modelning to‘rtta asosiy komponenti – diqqat, muhimlik, ishonch va qoniqish – maktab sharoitida sinov orqali tekshirdilar. 7-sinf “Oliy maqsad” mavzusida olib borilgan eksperimental ish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ARCS modeli o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash va shaxsiy rivojlanishga yordam berishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, modelning metakognitiv strategiyalar, video kontentlar va xobbi asosidagi faoliyatlar bilan integratsiyalashuvi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *ARCS modeli, motivatsiya, sinfdan tashqari ishlar, metakognitiv strategiyalar, konsolidatsiya, kognitiv dissonans, prokrastinatsiya.*

Худойбердиева Шохсанамхон Мукумжоновна (Андижанский государственный университет)

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ МОТИВАЦИИ ARCS: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Аннотация. *В статье научно-теоретически и практическим образом анализируется модель мотивации ARCS (Внимание, Актуальность, Уверенность, Удовлетворение) Джона Келлера и ее применение в организации внеурочной деятельности. В ходе исследования студенты проверили четыре основных компонента модели – внимание, актуальность, уверенность и удовлетворение – в условиях школы. Результаты экспериментальной работы по теме "Высшая цель" в 7-м классе показали, что модель ARCS является эффективным инструментом для повышения мотивации учащихся, обеспечения их активного участия и содействия личностному развитию. В статье также показано интегрирование модели с метакогнитивными стратегиями, видео-контентом и деятельностью на основе хобби.*

Ключевые слова: *модель ARCS, мотивация, внеурочная деятельность, метакогнитивные стратегии, консолидация, когнитивный диссонанс, прокрастинация.*